



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-17-137-11-163-K/25 Farg‘ona tumani

Farg‘ona tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1105-son Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 20-oktyabrdagi 02-1511-sonli va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrdagi 01/57-1-29235-sonli xatlarini, Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-15-160-11-0-K/25-sonli qarorini inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) hamda Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-15-160-11-0-K/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Farg‘ona tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari **191 652,2 mln.so‘m** va xarajatlari **191 652,2 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Farg‘ona tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga**;

Tuman mahalliy byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-iloraga**;

2026-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari **3-iloraga**;

Bunda, mazkur qaror qabul qilingandan soʻng bir kun muddatda ajratmalarning normativlari boʻyicha tuman byudjetiga taqsimotini oʻrnatilgan tartibda "Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga" Fargʻona viloyati Gʻaznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qoʻyilganligi inobatga olinsin.

4. Tuman byudjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlari **4-iloraga** muvofiq maʼlumot uchun qabul qilinsin.

5. Tumanning byudjeti shaxsiy gʻazna hisobvaragʻida turgan byudjet mablagʻlarining 2026-yilda yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori **5-iloraga** muvofiq belgilansin.

6. Tuman byudjeti zaxira jamgʻarmasi hajmi 2026-yil uchun **2 212,5 mln.soʻm** miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun tuman byudjetining zaxira jamgʻarmasi tuman byudjet tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablagʻlari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Bunda tuman byudjetining zaxira jamgʻarmasi miqdori oldingi yildagi hajmidan kam boʻlmagan miqdorda shakllantirilishi inobatga olinsin.

7. Quyidagilar:

Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **6-iloraga**;

jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **7-iloraga**;

koʻchmas mulk obʼektlari boʻyicha ijara qiymatining 1 m² uchun uchun oʻrnatilayotgan minimal miqdorlari **8-iloraga**;

noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) qatʼiy belgilangan soliq stavkalari miqdorlari **9-iloraga**;

yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari 1 m³ uchun mutlaq o'lchamda belgilanadigan miqdorlari **10-ilogava** muvofiq tasdiqlansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qaroriga muvofiq viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi:

respublika byudjetidan Farg'ona viloyatining viloyat byudjetiga o'tkazib beriladigan daromad prognozining oshirib bajarilgan qismidan 50 foizini 2025-yil 1-dekabr holatiga statistika organlaridan olingan tuman (shahar)lar aholisining jami viloyat aholisi ulushiga muvofiq tuman (shahar)lar byudjetlariga belgilangan muddatlarda o'tkazish;

dehqon bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlaridan tushgan soliqlar bo'yicha viloyat byudjetiga o'tkazilgan mablag'larni ushbu sohadagi hamda mahallalarda infratuzulmani yaxshilash uchun mazkur bozorlar joylashgan tuman (shahar)lar byudjetlariga to'liq o'tkazilishini ta'minlashi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari O.Abduraximov, tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov), tuman soliq inspeksiyasi (I.Sharopov) tuman hokimligi bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

10. Tuman hokimligi, hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar 2026-yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, mahalliy byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

11. Tuman soliq inspeksiyasi (I.Sharopov) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o'rnatish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlililar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq

nazoratini oʻrnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini oʻtkazish;

yer va mol-mulk soligʻining soliq bazasini oshirish, yaʼni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. Majburiy ijro byurosi tuman boʻlimi (**S.Abdugodirov**), tuman soliq inspeksiyasi (**I.Sharopov**) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar boʻyicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar koʻrib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi boʻyicha barcha kompleks chora-tadbirlar koʻrish vazifasi yuklatilsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Fargʻona viloyat hududiy boshqarmasi va Boʻsh turgan obʼektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Fargʻona viloyat hududiy boshqarmasiga:

boʻsh turgan davlat mulki obʼektlarini aniqlash boʻyicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga koʻra tumanda mavjud boʻsh turgan davlat mulki obʼektlari roʻyxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish boʻyicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilganligi inobatga olinsin.

14. Tuman suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi D.Yuldashev va tuman soliq inspeksiyasi (I.Sharopov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sugʻorishga sarflanayotgan suv hajmlari boʻyicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur isteʼmol hajmlari boʻyicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni toʻliq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetga toʻliq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xoʻjaligi korxonalari tomonidan isteʼmol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar boʻyicha hisoblanayotgan suv soliqlari boʻyicha doimiy tahlillar oʻtkazishga alohida eʼtibor qaratilsin.

15. Tuman ichki ishlar boʻlimi (M.Qunduzov), Adliya boʻlimi S.Mahkamov tumanda byudjetga hisoblangan boj, jarima va yigʻimlarni oʻz vaqtida toʻliq byudjetga undirish choralarini koʻrib borsinlar.

16. Xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimligi Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27-va 28-moddalarida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamgʻarmalariga tushumlar toʻliq va oʻz vaqtida tushishi hamda byudjet mablagʻlarining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat oʻrnatilsin.

17. Hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablagʻlarining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning

amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta‘minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma‘lumotlarni joylashtirib borilishini ta‘minlasinlar.

18. Tuman hokimligi axborot xizmati A.Ergashev, tuman soliq inspeksiyasi (I.Sharopov), iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov) bilan birgalikda tumandagi ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi “Vodil yog‘dusi” gazetasida Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma‘lumotlarni e‘lon qilinishi hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini tashkil etsin.

19. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi M.Yo‘ldashev hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**INOMOV
XAMIDULLO
TADJIYEVICH**

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-137-11-163-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun Farg‘ona tumani mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz
ko‘rsatkichlari miqdori**

№	Daromad turlari	Farg‘ona tumani
	JAMI	191,652,200
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	4,006,000
2	Foyda solig‘i	2,148,000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	8,697,000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	43,680,000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	2,619,000
	Aksiz solig‘i jami	12,269,000
	<i>alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)</i>	0
	<i>pivo</i>	0
6	<i>benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste‘molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i</i>	12,269,000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7,836,000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	15,914,000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20,807,000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	37,779,000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	6,551,000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	23,426,000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	4,775,000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-1,910,000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	1,916,700
15	Yig‘imlar	662,500
16	Jarimalar	3,195,000
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	146,000

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-17-137-11-163-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**2026-yil uchun Farg‘ona tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari
taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari**

		ming so‘m
№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Farg‘ona tumani
Xarajatlar miqdori, jami		191,652,200
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	71,796,769
	<i>shundan:</i>	<i>x</i>
	<i>"Mening maktabim"</i>	3,893,400
2	Madaniyat bo‘limi	7,762,521
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	8,459,649
4	Sport bo‘limi	8,798,554
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1,628,065
6	Qishloq xo‘jaligi sohasi	2,638,021
7	Irrigatsiya bo‘limi	4,626,920
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2,609,928
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	137,740
10	Hokimiyat	57,967,648
	<i>shundan:</i>	
	<i>Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi</i>	35,445,099
	<i>"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari</i>	3,254,751
	<i>Zahira jamg‘armasi</i>	2,212,554
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	887,211
	<i>shundan:</i>	<i>x</i>
	<i>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari</i>	109,211
	<i>Axborot-kutubxona markazlari</i>	778,000
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	24,339,174
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-17-137-11-163-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun tuman byudjetiga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari

P R O G N O Z I

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i (jami manbadan 20 foiz mahalliy byudjetga)				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i berishdan				Mol-mulkini ijaraga berishdan tushumlar				Foyda solig‘i (mahalliy qismi)			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Farg‘ona tumani	0%	10.0%	20.0%	10.0%	0%	50%	100%	50%	100%	100%	0%	0%	0%	20%	100%	80%

№	Hududlar nomi	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) (jami manbadan 30 foiz mahalliy byudjetga)				Pivo				benzin dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste‘molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Farg‘ona tumani	0%	0%	30%	30%	0%	0%	100%	100%	0%	30%	100%	70%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

№	Hududlar nomi	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji (mahalliy qismi)		Jarima		Yig‘imlar (mahalliy qismi)	
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB								
1	Farg‘ona tumani	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	26%	74%	30%	70%	31%	69%

Xalq deputatlari Fargʻona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-137-11-163-K/25 -son qaroriga
4-ilova

**Tuman mahalliy byudjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy
hajmi**

ming soʻmda

№	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Fargʻona tumani	191 652 200	191 652 200

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-137-11-163-K/25 -son qaroriga
5-ilova

**2026-yilda tuman mahalliy byudjetida aylanma kassa mablag‘larining
yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori**

ming so‘mda		
T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Farg‘ona tumani	851 000

Xalq deputatlari Fargʻona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-17-137-11-163-K/25 -son qaroriga
6-ilova

**Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha
mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi
va oshiruvchi koeffitsientlar**

ming soʻmda

T/r	Hudud nomi	MFYlar nomi	2026 yil	
			Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Er soligʻi stavkasi (ming.soʻm)
1	Fargʻona t	Shoximardon	0.70	30,450
2	Fargʻona t	Yordon	0.70	30,450
3	Fargʻona t	Yu.Vodil	1.00	43,500
4	Fargʻona t	Navruz	1.00	43,500
5	Fargʻona t	Obod	1.00	43,500
6	Fargʻona t	Vodil	1.00	43,500
7	Fargʻona t	Xoʻja Axmad Vale	1.00	43,500
8	Fargʻona t	Sanoat	1.00	43,500
9	Fargʻona t	Xosilot	1.00	43,500
10	Fargʻona t	Tinchlik	1.00	43,500
11	Fargʻona t	Beruniy	1.00	43,500
12	Fargʻona t	Boʻston	1.00	43,500
13	Fargʻona t	Margʻilon	1.00	43,500
14	Fargʻona t	Dilkusho	1.00	43,500
15	Fargʻona t	Yambaroq	1.00	43,500
16	Fargʻona t	Novkent	1.00	43,500
17	Fargʻona t	Yuksalish	1.00	43,500
18	Fargʻona t	Toshqoʻrgʻon Aziz	1.00	43,500
19	Fargʻona t	Shoximardonobod	1.00	43,500
20	Fargʻona t	Kaptarxona	1.00	43,500
21	Fargʻona t	Yoyilma	1.00	43,500
22	Fargʻona t	Mexnatobod	1.00	43,500

23	Fargʻona t	B.Xamjixatlik	1.00	43,500
24	Fargʻona t	Logʻon	1.00	43,500
25	Fargʻona t	Vaziyo	1.00	43,500
26	Fargʻona t	Gulpiyon	1.00	43,500
27	Fargʻona t	Xurshidi Tobon	1.00	43,500
28	Fargʻona t	Mashʻal	1.00	43,500
29	Fargʻona t	Avval	1.00	43,500
30	Fargʻona t	Birdamlik	1.00	43,500
31	Fargʻona t	Mozortagi	1.00	43,500
32	Fargʻona t	Qorasuv	1.00	43,500
33	Fargʻona t	Oʻrta qishloq	1.00	43,500
34	Fargʻona t	Oqtapa	1.00	43,500
35	Fargʻona t	Damkoʻl	1.00	43,500
36	Fargʻona t	Boʻstonobod	1.00	43,500
37	Fargʻona t	Guliston	1.00	43,500
38	Fargʻona t	Oqtom	1.00	43,500
39	Fargʻona t	Satkak	1.00	43,500
40	Fargʻona t	Oqbilol	1.00	43,500
41	Fargʻona t	Soy boʻyi	1.00	43,500
42	Fargʻona t	Qoʻriq	1.00	43,500
43	Fargʻona t	Pastki Archa	1.00	43,500
44	Fargʻona t	Yuqori Archa	1.00	43,500
45	Fargʻona t	Chimyon	1.00	43,500
46	Fargʻona t	Baxor	1.00	43,500
47	Fargʻona t	Ulugʻbek	1.00	43,500
48	Fargʻona t	Langar	1.00	43,500
49	Fargʻona t	Qurilish	1.00	43,500
50	Fargʻona t	Zilol	1.00	43,500
51	Fargʻona t	Shifokor	1.00	43,500
52	Fargʻona t	Doʻstlik	1.00	43,500
53	Fargʻona t	Gulshan	1.00	43,500
54	Fargʻona t	Dexqonobod	1.00	43,500
55	Fargʻona t	Boy maxalla	1.00	43,500
56	Fargʻona t	Yuqori Gulshan	1.00	43,500

57	Fargʻona t	Mindon	1.00	43,500
58	Fargʻona t	Markaz	1.00	43,500
59	Fargʻona t	Guzar	1.00	43,500
60	Fargʻona t	Xoʻroba	1.00	43,500
61	Fargʻona t	Sh. Xaqiqati	1.00	43,500
62	Fargʻona t	Mindonobod	1.00	43,500
63	Fargʻona t	Yangi asr	1.00	43,500
64	Fargʻona t	Xonqiz	1.00	43,500
65	Fargʻona t	Oq Oltin	1.00	43,500
66	Fargʻona t	Oʻzbekiston	1.00	43,500
67	Fargʻona t	Fargʻona	1.00	43,500
68	Fargʻona t	Qoʻrgʻontepa	1.00	43,500
69	Fargʻona t	Maydon	1.00	43,500
70	Fargʻona t	Yangi yoʻl	1.00	43,500
71	Fargʻona t	Konchilar	1.00	43,500

Izo: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer soligʻi stavkasini mahalla fuqarolar yigʻinlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,7-3,0 kamaytiruvchi va koʻpaytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Fargʻona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-17-137-11-163-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hudud nomi	MFY lar nomi	soʻmda 2026-yil	
			Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Er soligʻi stavkasi (soʻm)
1	Fargʻona t	Shoximardon	0.75	309
2	Fargʻona t	Yordon	0.75	309
3	Fargʻona t	Yu.Vodil	1.05	433
4	Fargʻona t	Navruz	1.05	433
5	Fargʻona t	Obod	1.05	433
6	Fargʻona t	Vodil	1.05	433
7	Fargʻona t	Xoʻja Axmad Vale	1.05	433
8	Fargʻona t	Sanoat	1.05	433
9	Fargʻona t	Xosilot	1.05	433
10	Fargʻona t	Tinchlik	1.05	433
11	Fargʻona t	Beruniy	1.05	433
12	Fargʻona t	Boʻston	1.05	433
13	Fargʻona t	Margʻilon	1.05	433
14	Fargʻona t	Dilkusho	1.05	433
15	Fargʻona t	Yambaroq	1.05	433
16	Fargʻona t	Novkent	1.05	433
17	Fargʻona t	Yuksalish	1.05	433
18	Fargʻona t	Toshqoʻrgʻon Aziz	1.05	433
19	Fargʻona t	Shoximardonobod	1.05	433

20	Fargʻona t	Kaptarxona	1.05	433
21	Fargʻona t	Yoyilma	1.05	433
22	Fargʻona t	Mexnatobod	1.05	433
23	Fargʻona t	B.Xamjixatlik	0.75	309
24	Fargʻona t	Logʻon	1.05	433
25	Fargʻona t	Vaziyo	1.05	433
26	Fargʻona t	Gulpiyon	1.05	433
27	Fargʻona t	Xurshidi Tobon	1.05	433
28	Fargʻona t	Mashʻal	1.05	433
29	Fargʻona t	Avval	1.05	433
30	Fargʻona t	Birdamlik	1.05	433
31	Fargʻona t	Mozortagi	1.05	433
32	Fargʻona t	Qorasuv	1.05	433
33	Fargʻona t	Oʻrta qishloq	1.05	433
34	Fargʻona t	Oqtepa	1.05	433
35	Fargʻona t	Damkoʻl	1.05	433
36	Fargʻona t	Boʻstonobod	1.05	433
37	Fargʻona t	Guliston	1.05	433
38	Fargʻona t	Oqtom	1.05	433
39	Fargʻona t	Satkak	1.20	494
40	Fargʻona t	Oqbilol	1.05	433
41	Fargʻona t	Soy boʻyi	1.05	433
42	Fargʻona t	Qoʻriq	1.05	433
43	Fargʻona t	Pastki Archa	1.05	433
44	Fargʻona t	Yuqori Archa	1.05	433
45	Fargʻona t	Chimyon	1.05	433
46	Fargʻona t	Baxor	1.05	433
47	Fargʻona t	Ulugʻbek	1.05	433
48	Fargʻona t	Langar	1.05	433
49	Fargʻona t	Qurilish	1.05	433
50	Fargʻona t	Zilol	1.05	433

51	Fargʻona t	Shifokor	1.05	433
52	Fargʻona t	Doʻstlik	1.05	433
53	Fargʻona t	Gulshan	1.05	433
54	Fargʻona t	Dexqonobod	1.05	433
55	Fargʻona t	Boy mahalla	1.05	433
56	Fargʻona t	Yuqori Gulshan	1.05	433
57	Fargʻona t	Mindon	1.05	433
58	Fargʻona t	Markaz	1.05	433
59	Fargʻona t	Guzar	1.05	433
60	Fargʻona t	Xoʻroba	1.05	433
61	Fargʻona t	Sh. Xaqiqati	1.05	433
62	Fargʻona t	Mindonobod	1.13	466
63	Fargʻona t	Yangi asr	1.13	466
64	Fargʻona t	Xonqiz	1.05	433
65	Fargʻona t	Oq Oltin	1.05	433
66	Fargʻona t	Oʻzbekiston	1.05	433
67	Fargʻona t	Fargʻona	1.05	433
68	Fargʻona t	Qoʻrgʻontepa	1.05	433
69	Fargʻona t	Maydon	1.05	433
70	Fargʻona t	Yangi yoʻl	1.05	433
71	Fargʻona t	Konchilar	1.05	433

Xalq deputatlari Fargʻona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-137-11-163-K/25 -son qaroriga
8-ilova

**Soliq solish maqsadida qoʻllaniladigan koʻchmas mulk ijara qiymatining 1 kvadrat metri
uchun oʻrnatilayotgan minimal miqdorlar**

soʻmda

№	Hudud nomi	2026-yil uchun			
		1 m.kv <u>turar</u> joylar uchun		1 m.kv <u>noturar</u> joylar uchun	
		Koef fitsient	Yakuniy stavkasi	Koef fitsient	Yakuniy stavkasi
1	Fargʻona tumani	1.05	6,195.00	1.05	12,390.0

Xalq deputatlari Fargʻona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-137-11-163-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) qatʻiy belgilangan soliq stavkalari belgilanadigan miqdorlari

soʻmda

T/r	Hududlar	Qurilish qumi qumtoshlar qum-shagʻal aralashmasi		Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi lyosslar va lyossimon jinslar	
		Foiz	Mutloq qiymat	Foiz	Mutloq qiymat
1	Fargʻona tumani	1,05	5 618,0	1,05	5 190,0

Izox: Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) qatʻiy belgilangan soliq stavkalariga 1 3 baravargacha oshiruvchi koeffitsient belgilashga haqli.

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-137-11-163-K/25 -son qaroriga
10-ilova

**Yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr
uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi**

T/r	Hududlar	so‘mda							
		Iqtisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalari uchun				Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun		Avtotransport vositalarini yuvish uchun	
		Koeff itsient	Er usti	Koeffi- sient	Er osti	Koeffi- sient	Summasi	Koeff itsient	Summasi
1	Farg‘ona tumani	1,12	839,0	1,12	1 019,0	1,07	43 506,0	1,12	17 976,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,7-1,5 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.